

MA'NAVIY AXLOQIY TARBIYALASHDA CHET TILINING O'RNI

Dosimbetov J.B- 1 kurs magistranti, Ajiniyoz nomidagi NDPI

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Tarbiya inson shaxsi ma'naviyatini, e'tiqodini, o'zini anglash, yon atrofga bo'lgan munosabatini shakllantirishga qaratilgan jarayoni. Ushbu jarayon mutanosibligini ta'minlashda ta'lim - tarbiya ishini uyg'un tarzda olib borish lozim bo'ladi. Har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalash, bugungi kunning dolzarb masalasi xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan". Shuni qayd etish kerakki, mamlakatimizda ro'y berayotgan har qanday yuksalishlar, e'tirofga loyiq yangiliklarning barchasi o'zining mustahkam ma'naviy asoslariga ega. [1].

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi.

Ma'naviyat kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Manaviyat manolar majmuasi bildirib hayot bilan doimo yonma yon yuradigan, inson, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lgan ijtimoiy hodisa hisoblanadi[[2;8].

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqishi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi. Bir so'z bilan aytganda axloq-jamiyatda qabul qilingan, jamoatshilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmui.

Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib qoida bo'lib, bu tartib qoida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq talablari barchaga taaluqli, biroq hech kimning ko'rsatmasi, hesh qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtoyoriy amalga oshiraladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi [5;82].

Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik ma'naviyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Bu borada faylasuf olim E. Yusupovning "Manaviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotning burilish davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilar belgilaydi. Xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo'lsa ham, hesh qashon buyuk davlat bo'la olmaydi." [3;4]. Shu sababli davlatimiz ilk mustaqillik davrlarida manaviy kamoloti masalasiga ahamiyot berdi.

Agar ma'naviyat yuksalsa, jamiyat va millat ravnaq topadi, odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi [2;9].

Global madaniy jarayonning to'liq ishtirokchisi bo'lish uchun o'quvchilar insoniyat asrlar davomida to'plagan ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishlari kerak. Umumjahon madaniy makonga kirgan shaxs va butun millat madaniyatlararo muloqotning turli vositalariga ega bo'lishi kerak. Shu nuqtai nazardan, kamida bitta chet tilini bilish muhim rol o'ynaydi [2;10].

Chet tilin o'rganish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasin rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u faqat o'rganilayotgan chet tilining grammatik, leksik va fonologik xususiyatlarini bilish va tushunish bilan cheklanib qolmasligi, balki o'sha til madaniyatini o'rganish kerak. E. I. Passovning fikricha, "til va madaniyat ajralmas ma'naviy birlik" [4;11].

Chet tili darslarida bag'rikenglik, oilaviy qadriyatlar, irodaviy fazilatlar, vijdon, ruhning kuchi haqida suhbatlar o'tkaziladi. Shunday qilib, dialog jarayonida darsda berilgan vazifalarni bajarishga erishish mumkin. Xulosa qilish mumkinki, kommunikativ ta'lim tirishqoqlik, qat'iyatlilik, faollik, mustaqillikni tarbiyalaydi va shakllantiradi; tasavvur, fikrlash va xotirani rivojlantiradi.

Kommunikativ texnologiyalaridan biri xisoblangan "Texnologiyali kvadrat" foydalanishni tavsiya etiladi. Bu kommunikativ texnologiyaning barcha jihatlari va nutq faoliyatining barcha usullar ishtirok etishni o'z ichiga olgan materialni o'zlashtirishga yordam beradi.

O'qish ta'lim va tarbiyalashning ko'plab usullaridan biridir, chunki badiiy va ma'naviy adabiyotlar o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi. Bu matndan, ma'lumot olishdan, aks ettirishgacha, dunyoqarashni shakllantirishning bevosita yo'rdam beradi.

Chet tilini o'rganish orqali shaxslararo va madaniyatlararo o'zaro ta'sir sodir boladi. Shu bilan birga, uning vazifasi boladi; bag'rikenglikni, chet tili madaniyatini ijobiy va qiziqish bilan idrok etishni tarbiyalash va shu bilan birga maktab o'quvchilarida o'z xalqining madaniyatiga hurmatni rivojlantiradi.

Madaniyatning haqiqiy qadriyatlari bilan tanishmasdan, ma'naviy va axloqiy salohiyatni rivojlantirmasdan, atrofdagi dunyoni ijobiy o'zgartirishga, ma'naviy shaxsiy o'sishga tayyor bo'lgan uyg'un shaxsni shakllantirish va rivojlantirish vazifasiga erishib bo'lmaydi.

Shunday ekan, o'quvchilarga chuqur nazariy va amaliy bilimlar, kasbiy malaka, ko'nikmalar hosil qilish, ijtimoiy hayotidagi voqea-hodisalari va muammolariga to'g'ri munasabatda bo'lishga o'rgatish, Vatanni sevisish, ajdodlari yaratgan bebaho ma'naviy javohirlarni imkon qadar egallash, ularni asrab-abaylash va boyitish imkonin beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 19 yanvar kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish" to'g'risidagi ma'ruzasi (uza.uz/uz/posts/yangi-ozbekistonazhdodlarimizning-boy-merosi-va-qoshnichilik-munosabatlari_298809).
2. Arzieva B. DEVELOPING PUPILS'SPIRITUAL FEATURES IN THE PROCESS OF LEARNING ENGLISH //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 10.
3. Nosirxo'jaev S.H. boshqalar Ma'naviyat asoslari – T., Cholpon, 2006
4. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., Universitet, 1996
5. Пассов, Е.И., Н.Е.Кузовлева Урок иностранного языка - М.: Глосса-пресс Феникс, 2010.
6. J.Hasanboev, H.Sariboev, G.Niyozov, O.Hasanboeva, M.Usmonboeva Pedagogika – T: Fan, 2006.
7. Z.Elmuratova, S.Kurbaniyazova. The pedagogical value of proverbs and sayings in English language teaching //EMERGENT: Journal of educational discoveries and lifelong learning. Volume 6. ISSUE 1. 2025. p 6-8